



**O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki**

So'mning real samarali almashuv kursini hisoblash metodologiyasi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Boshqaruvining 2026-yil 18-martdagi
9/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan

SO'MNING REAL SAMARALI ALMASHUV KURSINI HISOBLASH METODOLOGIYASI

1. Kirish

Mazkur metodologiya so'mning samarali almashuv kursi indekslarini hisoblash tartibini belgilash hamda ularni baholashda yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Real samarali almashuv kursi pul-kredit sharoitlarini baholovchi, shuningdek, asosiy savdo hamkorlarining inflyatsiyasi va valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ta'sirini hisobga olgan holda milliy iqtisodiyotning nisbiy narx raqobatbardoshligini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichdir.

2. Asosiy tushunchalar

Nominal almashuv kursi (almashuv kursi) – bir mamlakat milliy valyutasining boshqa mamlakat milliy valyutasidagi qiymatini ifodalaydi. Almashuv kursi ikki valyuta o'rtasidagi almashuv nisbatini ko'rsatadi.

Nominal samarali almashuv kursi (NSAK) – milliy valyutaning asosiy savdo hamkorlari valyutalariga nisbatan qiymatini ularning tashqi savdodagi ulushlari asosida vazn berib hisoblash orqali aniqlanadigan indeksdir. Bunda mamlakatlar o'rtasidagi narxlar darajasi farqi hisobga olinmaydi.

Real almashuv kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasiga nisbatan qiymatini ikki mamlakatdagi narxlar darajasi farqini hisobga olgan holda ifodalaydi. U milliy va xorijiy tovarlar o'rtasidagi nisbiy qiymatni aks ettirib, iqtisodiyotlar o'rtasidagi narx raqobati sharoitini ko'rsatadi.

Real samarali almashuv kursi (RSAK) – milliy valyutaning asosiy savdo hamkorlari valyutalariga nisbatan qiymatini inflyatsiya farqini hisobga olgan holda hamda ularning tashqi savdodagi ulushlari bo'yicha vazn berib hisoblash asosida aniqlanadigan indeksdir. RSAK milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi nisbiy narx raqobatbardoshligini ifodalaydi.

3. Hisoblash tartibi

Xalqaro amaliyotda samarali almashuv kurslarini hisoblashning turli usullari mavjud. Markaziy bank so'mning samarali almashuv kursini geometrik o'rtachalash usuli asosida hisoblaydi. Vazn sifatida asosiy savdo hamkorlarining mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi olinadi.

Nominal almashuv kurslarini real ko'rsatkichga o'tkazishda tegishli mamlakatlarning iste'mol narxlari indeksi (INI) qo'llaniladi.

3.1. Nominal almashuv kursi

Nominal almashuv kursi milliy valyutaning xorijiy valyutadagi qiymati (E) yoki aksincha, xorijiy valyutaning milliy valyutadagi qiymati (R) orqali aniqlanadi:

$$E = \frac{1}{R} \quad (1)$$

bunda:

$E = 1$ so'mning xorijiy valyuta birligidagi qiymati;

R = xorijiy valyutasi 1 birligining so'mdagi qiymati.

3.2. Nominal almashuv kursi indeksi

Nominal almashuv kursi indeksini hisoblashda almashuv kursi bazaviy davrga nisbatan indeks (NER_{it}) ko'rinishiga keltiriladi:

$$NER_{it} = 100 \times E_{it}/E_{i0} \quad (2)$$

bunda:

t – davr, 0 – bazaviy davr;

E_{it} - t davr uchun 1 so'mning tanlab olingan i -savdo hamkorining valyuta birligidagi qiymati;

E_{i0} - bazaviy davr uchun 1 so'mning tanlab olingan i -savdo hamkorining valyuta birligidagi qiymati.

Nominal almashuv kursi indeksi o'sishi so'mning solishtirilayotgan valyutaga nisbatan nominal mustahkamlanishini, pasayishi esa qadrsizlanishini bildiradi.

3.3. Real almashuv kursi indeksi

Real almashuv kursi indeksi (RER_{it}) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$RER_{it} = NER_{it} \times \frac{CPI_{Dt}/CPI_{D0}}{CPI_{Fit}/CPI_{Fi0}} \quad (3)$$

bunda:

CPI_D – O'zbekiston iste'mol narxlari indeksi;

CPI_{Fi} – tanlab olingan i -savdo hamkorining iste'mol narxlari indeksi.

3.4. Nominal samarali almashuv kursi

Nominal samarali almashuv kursi tanlab olingan savdo hamkorlarning nominal almashuv kurslari indeksini vaznga tortilgan geometrik o'rtachalash usuli orqali aniqlanadi:

$$NEER_t = 100 \times \prod_{i=1}^N (NER_{it}/100)^{w_i} \text{ yoki} \quad (4)$$
$$NEER_t = 100 \times (NER_{1t}/100)^{w_1} \times \dots \times (NER_{Nt}/100)^{w_N}$$

bunda:

w_i – tanlab olingan i savdo hamkorining tashqi savdo aylanmasidagi vazni;

N – tanlab olingan savdo hamkorlari soni.

3.5. Real samarali almashuv kursi

Real samarali almashuv kursi tanlab olingan savdo hamkorlarning real almashuv kurslar indekslarini vaznga tortilgan geometrik o'rtachalash usuli orqali aniqlanadi:

$$\begin{aligned} REER_t &= 100 \times \prod_{i=1}^N (REER_{it}/100)^{w_i} \text{ yoki} \\ REER_t &= 100 \times (REER_{1t}/100)^{w_1} \times \dots \times (REER_{Nt}/100)^{w_N}. \end{aligned} \quad (5)$$

4. Zanjirli indeks usuli

Birinchi bosqichda nominal va real samarali almashuv kurslarining har bir davr uchun avvalgi davriga nisbatan $(t/t-1)$ o'zgarish sur'atlari hisoblanadi. Ikkinchi bosqichda natijalardan zanjirli indeks (*chain-linked index*) usuli yordamida yagona dinamik qator shakllantiriladi. Bunda tanlangan davr uchun indeks bazaviy qiymatdan boshlab, barcha oldingi davrlar o'sish sur'atlarini ko'paytirish orqali hisoblanadi. Ushbu yondashuv uzoq muddatli dinamikani aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

5. Vaznlarni aniqlash tartibi

Valyuta savati tarkibi so'nggi uch yilda tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo'lgan N -ta mamlakatni tanlab olish asosida shakllantiriladi. Bunda, tanlab olingan mamlakatlarning umumiy tashqi savdo aylanmasidagi jami ulushi 85 foizdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi.

Tanlanmaga faqat nominal almashuv kurslari va narx indeksleri bo'yicha muntazam hamda solishtirma statistik ma'lumotlar mavjud bo'lgan mamlakatlar kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tashqi savdo geografiasidagi o'zgarishlarni hisobga olish maqsadida tanlanmaning tarkibi va mamlakatlarning vaznlari har uch yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Samarali almashuv kurslarini hisoblashda qo'llaniladigan har bir valyutaning vazni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$w_i = \frac{X_i + I_i}{\sum_{k=1}^N (X_k + I_k)}; \quad \sum_{i=1}^N w_i = 1 \quad (6)$$

bunda:

X_i – O'zbekistonning i savdo hamkoriga amalga oshirgan eksport hajmi;

I_i – i savdo hamkoridan O'zbekistonga amalga oshirilgan import hajmi.

6. Oltin eksportini hisobga olish

Oltin eksportining ta'sirini baholash maqsadida nominal va real samarali almashuv kursi indeksleri alohida hisoblanadi. Oltin eksporti mamlakatlar bo'yicha taqsimlanmaganligini inobatga olib, N-ta mamlakatga qo'shimcha ravishda "Oltin" o'zgaruvchisi alohida satr sifatida kiritiladi. Keyingi bosqichda vaznlar oltin eksporti hisobga olingan holda qayta hisoblanadi. Oltin eksporti AQSH dollarida amalga oshirilganligi sababli, "Oltin" satri uchun valyuta sifatida AQSH dollari qabul qilinadi. "Oltin" satri bo'yicha real kursni hisoblashda narx indeksi sifatida oltin narxining o'zgarishi olinadi.

7. Ma'lumotlar manbalari va hisoblash davriyligi

Bazaviy davr – 2019-yil sentyabr oyi.

Ma'lumot uchun: Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida 2019-yil 20-avgustdan boshlab tijorat banklari tomonidan naqd xorijiy valyutani sotish yo'lga qo'yildi. Shu sababli, 2019-yil sentyabr oyi so'mning real samarali almashuv kursi indeksini hisoblashda bazaviy davr sifatida belgilangan.

Statistik manbalar:

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (eksport va import hajmlari, iste'mol narxlari indeksi);

Savdo hamkorlarning milliy statistika organlari (iste'mol narxlari indeksi);

Savdo hamkorlarning markaziy banklari (rasmiy almashuv kurslari).

Almashuv kursi ko'rsatkichlaridan oylik o'rtachaga keltirilgan holda foydalaniladi.